

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМЙЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамйрзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМЙЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМЙЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМЙЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ MASALALARI ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР MASALALARНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202



Tuyg'un Rajabovich Ernazarov,
Samarqand davlat universiteti doktoranti
Email: tuygun.ernazarov.83@mail.ru

TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida)

For citation: Tuigun R. Ernazarov, ORGANIZATION OF THE CUSTOMS SERVICE AND ITS ACTIVITIES IN THE DEPARTMENT OF THE GENERAL PROVINCE OF TURKESTAN (on the example of relations between the Russian Empire and China). Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.182-186

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072235>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston general gubernatorligini to'liq iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish uchun bojxona tashkilotlari orqali amalga oshirgan siyosati atroflicha tahlil qilingan. Mazkur siyosatdagi uslubiyatlar va maqsadlar ko'rsatib berilgan. Xususan, tarixiy manbalar orqali Turkiston general gubernatorligida bojxona xizmatining tashkil etilishi imperiya manfaatlariga mos keladigan bo'lsa ularni o'zlashtirishga va imperiya ma'muriyatining Turkistonning Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalaridan foydalanishga harakat qilinganligi asoslab berilgan. Keltirilgan fikrlarni asoslash maqsadida Rossiya-Xitoy aloqalaridagi bojxona kelishuvlari misol tariqasida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Imperiya, Turkiston bojxonasi, Bojxona p ostlari. Tashqi savdo, Yurisdiksiya, Sharqiy Turkiston, Statistika.

Туйгун Раджабович Эрнazarov,
Докторант Самаркандского государственного университета
эл.почта: tuygun.ernazarov.83@mail.ru

ОРГАНИЗАЦИЯ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ И ЕЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УПРАВЛЕНИИ ГЕНЕРАЛЬНОГО ГУБЕРНАТОРСТВА ТУРКЕСТАНА (на примере отношений Российской империи с Китаем)

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируется политика, проводившаяся Российской империей через таможенные организации по полному экономическому поглощению Туркестанской губернии, показаны методы и цели этой политики. В частности, историческими источниками обосновывается, что организация таможенной службы в Туркестанском генерал-губернаторстве стремилась поглотить их, если это соответствовало интересам империи, и что администрация империи пыталась использовать торговую и экономические отношения

Туркестана с Китаем. В качестве примера приводятся таможенные соглашения в российско-китайских отношениях для обоснования указанных моментов.

Ключевые слова: Империя, Туркестанская таможня, Таможенные посты. Внешняя торговля, Юрисдикция, Восточный Туркестан, Статистика.

Tuigun R. Ernazarov,

Doctoral student of Samarkand State University

e-mail: tuygun.ernazarov.83@mail.ru

ORGANIZATION OF THE CUSTOMS SERVICE AND ITS ACTIVITIES IN THE DEPARTMENT OF THE GENERAL PROVINCE OF TURKESTAN (on the example of relations between the Russian Empire and China)

ABSTRACT

In this article, the policy implemented by the Russian Empire through the customs organizations for the complete economic absorption of the Turkestan Governorate is thoroughly analyzed. The methods and goals of this policy are shown. In particular, historical sources substantiate that the organization of the customs service in the Turkestan General Government sought to absorb them if it was in the interests of the empire, and that the administration of the empire tried to use the trade and economic relations of Turkestan with China. Customs agreements in Russia-China relations are given as an example in order to justify the mentioned points.

Index Terms: Empire, Turkestan customs, Customs posts. Foreign trade, Jurisdiction, East Turkestan, Statistics.

1. Dolzarbligi:

XIX asrda rivojlanib borayotgan iqtisodiy ehtiyoj va u keltirib chiqarayotgan keng ko'lamli mustamlakachilik siyosati qurboniga aylangan O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy ustunlik va mahalliy davlatlar qoloqligi, o'zaro kelishmovchiliklarning mavjudligi natijasida zabt etilgach, hududda Rossiya imperiyasining iqtisodiy va siyosiy tartiboti zo'rlik yo'li bilan o'rnatila boshlandi. Bu holat imperiya tomonidan xonliklardan undirilgan kontributsiyalarda, mahalliy xalqqa solingan soliqlarda, mahalliy xalqning iqtisodiy aloqalarini cheklashga o'rinishda va ayniqsa qadimdan mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy aloqalar zanjirini uzib tashlashda yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan: 1881 yilgi Turkiston Bojxona nazorat bo'limi ma'lumotlarida savdo bojini miqdolini oshirish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, Zarafshon okrugi, Sirdaryo viloyati, Amudaryo bo'limida har bir kuchmanchi ovulidagi xonadondanlarning har biridan 4 tiyindan soliq olishga qaror qilinganligi keltirilib o'tilgan[1;26].

2. Metodlar:

Rossiya imperiyasi Turkiston zaminini zabt etgandan sung, uni iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'zlashtirishga kirishib ketdi. Bu mavzuni o'rganishda asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Milliy Arxivi hujjatlari va tarixshunos olimlarning asarlari asosiy ma'lumot manbai sifatida olingan. Chunki bu davrga oid ma'lumotlarning katta qismi rus tilida bitilganligi manbalarni yana bir bor sinchiklab tahlil qilishni, sinfiy yoki tuzumlarning qarashlarini ifoda etmasdan haqqoniylik pozitsiyasida turishni talab etadi. Mavzuni yoritishda ko'proq e'tibor qiyosiy tahlil usuliga qaratildi. Bir biriga zid ravishda berilgan ma'lumotlar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida tayyorlangan ilmiy maqolalar orqali tuldirildi.

3. Tadqiqot natijalari:

O'tkazilgan tadqiqot natijalarni shuni ko'rsatadiki, Mustamlakachilikning birinchi xususiyati iqtisodiy sohadagi o'zgarishlarda ko'zga tashlanadi. Siyosiy sohadagi qonunchilik ham iqtisodiy jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Rossiya imperiyasining Turkiston zaminidagi bojxona siyosati ham o'ziga xos va ayni damda mustamlakachilik siyosatini o'zida aks ettiruvchi faoliyat yuritganligini manbalar ta'kidlab turibdi. Rossiya imperiyasi iqtisodiy va savdo aloqalariga doir

ma'lumotlar tegishli manbalar asosida dalillandi. Shu bilan birgalikda, davlatlararo savdo- iqtisodiy munosabatlar tarixshunosligiga doir ma'lumotlar isbotlangan dalillar asosida tuldirdi.

Turkiston xalqlari azal-azaldan qushni davlatlar bilan tarixiy savdo aloqalariga ega bo'lib, bu munosabatlar xoh tinchlik, xoh urush vaqtida ham tuxtab qolmagan. Chunki, bundan tomonlarning manfaatdorligi mavjud bo'lib, savdo bojlari undirilishidan davlatlar ham manfaatdor bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha, mazkur savdo bojlari davlatlar yalpi daromadining katta qismini tashkil etgan. Shu boisdan ham mazkur iqtisodiy munosabatlar tuxtab qolmagan. Aksincha, shart-sharoitlarga moslashgan holda (masalan: savdo bojini oshirilishi yoki kamaytirilishi) davom etib kelavergan[2;38].

Rossiya imperiyasining faol mustamlakachilik siyosati natijasida xonliklar hududi zabt etildi va bu yerda Turkiston general gubernatorligi tashkil etildi. Biroq Buxoro amirligi va Xiva xonligi yarimmustamlaka holatda saqlanib qoldi. Bu davlatlar tashqi kurinishdan davlat sifatida kurinsada amalda ular o'zlarini mustaqil his qilishmagan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha mazkur davlatlarning qushni davlatlar bilan mavjud tarixiy aloqalaridan Rossiya imperiyasi o'z manfaatlarini yo'lida foydalangan. Eron, Xitoy, Turkiya, Afg'oniston bilan savdo aloqalariga oid O'zbekiston Milliy Arxivida saqlanayotgan faktlar fikrimizni tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda, Rossiya imperiyasi xonliklarni o'z nazorati ostiga olish maqsadida o'zining bojxona tizimini joriy etishga kirishdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Chunki, Rossiya imperiyasi ma'muriyati viloyatlardagi savdo bojidan va uning miqdoridan norozi edi. Ularning fikricha, tushayotgan savdo bojlarini miqdorini yanada oshirish mumkin edi.

1881 yil manbalarida Farg'ona viloyat bojxona xizmatidan 117000 rubl faqat zakot solig'idan daromad tushgan[1;86]. Bu tushum iqtisodiy asosi Farg'onanikidan kam bo'lmagan Zarafshon okrugi va Sirdaryo viloyatidan ko'p bo'lgan. Shu boisdan, Sirdaryo viloyati bojxona xizmati alohida nazoratga olinadi. Qolaversa, Sirdaryo bojxona xizmati ma'lumotlarida viloyat hududidagi soliq tulamay kontrabanda bilan shug'ullanayotgan shaxslar to'g'risida ham ma'lumotlar bor edi. Masalan; Sirdaryo bojxona xizmati statistic va taftish guruhining xabarida viloyatdagi savdo bilan shug'ullanuvchilar 4 guruhga bo'lib ko'rsatilgan.

1. Mahalliy aholi. Savdo bilan yashirinch shug'ullanadi va hech qanday soliq tulamaydi.
2. Mahalliy aholi. 1/40 hajmda soliq tulab qonunlarga buysunadi.
3. Rus savdogarlari. 1/40 hajmda soliq tulab qonunlarga buysunadi.
4. Chet ellik savdogarlar. 1/40 hajmda soliq tulab qonunlarga buysunadi[1;79].

Sirdaryo viloyat bojxona xizmati 1-guruh ishtirokchilari uchun qonuniy jazo chorasini kurish taklifini kiritgan. 1881 yilda Turkiston general gubernatori general – leytenant Kolpakovskiy alohida bojxona nazorati xususida qaror chiqardi. Unga kora, umumiy 4 ta bojxona posti tashkil etiladi. 1) Amudaryo bo'limi- 3 ta nazorat punktidan iborat. 2) Zarafshon okrugi- 5 ta nazorat punktidan iborat. 3) Sirdaryo viloyati- 19 ta nazorat punktidan iborat. 4) Farg'ona- 6 ta nazorat punktidan iborat[1;87]. Mazkur qaror Turkiston general gubernatorligi vositasida amalga oshirilayotgan savdo aloqalari va boj yig'implari undirilishini tartibga solishi va kontrabandani oldini olishi kerak edi. Biroq, yangi tartibni to'liq tushunib yetmagan mahalliy aholi o'rnatilgan chegaralarni nazarga olmasdan, ularni buzib utib eski savdo aloqalarini davom ettiravergan. Bu holat esa imperiya ma'muriyatini muammo yuzasidan keskin chora va tadbirlar ko'rishga majbur qilgan.

O'zbekiston Milliy Arxivi fondlarida Turkiston general gubernatorligi vositasida, eski tarixiy aloqalardan foydalanilgan holda qushni davlatlar bilan, jumladan, Xitoy bilan olib borilgan savdo aloqalariga doir bojxona ma'lumotlari saqlanib qolgan. Unda keltirilgan ma'lumotlarda Rossiya imperiyasining Xitoy bilan aloqalari uzoq tarixga ega ekanligi keltiriladi.

Rossiya imperiyasining Qoshg'ardagi konsulini junatgan №3 raqamli xabarnomasida Rossiya imperiyasi viloyatlarining Xitoy bilan chegara hududlarida imperiyaga soliq tulovchi xitoylar istiqomat qilgan va ular Xitoy bilan o'zaro manfaatli aloqalarda vositachi rolini bajargan. Rossiya va Xitoy davlatlari chegaraviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratar edi. O'zaro munosabatlarning buzulishini oldini olish uchun chegara zonalaridagi fuqarolarni yoki soliq tulovchilarni o'z mamlakatlariga qisqa muddatli o'tib kelishlari uchun vaqtinchalik ro'xsatnoma berilgan. Biroq, 1899 yilgi ma'muriy islohotdan keyin Ettisuv viloyatining Step general – gubernatorligi tarkibidan ajratib

olinishi va uning Turkiston general gubernatorligi tarkibiga qo'shib berilishi mazkur viza jarayonini e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'ladi. Ettisuv viloyat gubernatorining hisobotlarida mazkur masala 3 yildan beri o'z echimini topmayotganligi alohida ta'kidlangan.

1902 yil 27 fevraldagi №2905 raqamli raportda viloyat gubernatori mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratishni va uni rad etilmasligini yana bir bor iltimos qilganligi qayd etilgan. Haqiqatdan ham bu davrda savdo aloqalari bilan emas shaxsiy yumush sababli bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tish holatlari ko'p edi. Asrlar davomidagi hamkorlik Rossiya va Xitoy imperiyalarining o'zaro kelishuvlari vositasida va sun'iy chegaralarning o'rnatilishi natijasida ma'lum darajada uzilish yuzaga kelgan va bu salbiy oqibatlarni- chegarani noqonuniy buzib o'tishlarni, kontrabandani keltirib chiqargan[7;131]. Turkiston general gubernatorligi nomidan Turkiston harbiy okrugi qumondonining №298 sonli Ettisuv gubernatoriga yuborgan xatida mazkur jarayonda va asosan savdo aloqalarida har ikkala tomon o'rnatgan qoidalarga amal qilish zarurligi, shaxsiy masalalarda esa maxsus pasport tizimini yo'lga qo'yilayotganligi hozircha esa faqatgina qalmiqlarni Mo'g'uliston orqali Xitoyga o'tishiga to'sqinlik qilinmasligi to'g'risida fikr bildirilgan[3;6].

1910 yil 22 dekabrda Verniy va Ettisuv viloyatining janubiy-sharqida yuz bergan zilzila Rossiya –Xitoy savdo aloqalarini rivojiga tusqinlik qilmagan[4;24]. Chunki 1910 yilda har ikkala davlat fuqarolarning mamalakatlar bo'ylab erkin harakatlanishi, erlarni ijaraga olishi va erkin savdo aloqalari bilan shug'ullanishigi kelishib olgan edi[5;24]. Buning uchun konsullik xitoy fuqarolarining vositachiligini qadrlab, xitoylik soliq tulovchilarga ma'lum imtiyozlarni taqdim etishgan. Misol uchun yig'imler yig'ishda ularning hissasi kamaytirilgan. Turkistondan Xitoyga kiritilayotgan mahsulotlar uchun boj 5%, Xitoydan kiritilayotgan tovarlar uchun esa 2% boj belgilanganligi ham fikrimizga misol bo'ladi[6;101]. Xuddi shu holat Xitoy hududidagi rus savdogarlariga Xitoy imperiyasi tomonidan ham taqdim etilgan bo'lib, bu holat o'zaro aloqalarning rivojlanishida ijobiy rol o'ynagan.

Ayni damda, Xitoydan quyidagi tovarlarni olib kirish taqiqlandi: vino, aroq, afyun va barcha giyohvandlik vositalari. Xitoy imperiyasiga harbiy snaryadlar, qurollar va porox eksport qilish taqiqlangan edi. 1881-yildagi Sankt-Peterburg shartnomasi 1913-yilda qayta ko'rib chiqilib, 1921-yilgacha uzaytirildi, biroq chegaradagi 50 verstlik hududda bojsiz savdo bekor qilindi. Bu bilan Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo va Rossiyaning boshqa chegaradosh hududlarini suv bosgan Xitoy tovarlari uchun o'z chegaralarini yanada yopib qo'ydi. Rossiya Xitoy bilan savdoda salbiy saldoga ega bo'lganligi sababli, u Osmon imperiyasi bilan savdo aloqalarini cheklamoqchi edi. "Turkiston" gazetasi Xitoy bilan savdo-sotiqning mohiyati haqida batafsil yozar ekan, "Mo'g'uliston, Shinjon viloyati, Manchuriya va ichki Xitoydagi barcha rus savdosi 1908 yilda 23 million rublni tashkil qilgan. - u yerdagi tovarlarimizni eksport qilish va 93 million rubl. - Xitoydan tovarlar importi uchun (ya'ni Xitoy foydasiga 70 million rubl). Hali ham osiyolik vositachilar qo'lida bo'lishi Rossiyaning Shinjon viloyati bilan savdosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rossiya yirik burjuaziyasi faqat Xitoy bilan savdo-sotiqni moliyalashtirgan, barcha savdo-sotiqni esa O'rta Osiyo savdogarlari amalga oshirgan. Bu holatning asosiy sababi Farg'onalik savdogarlarning qadimiy savdo aloqalari bo'lgan Qashg'ar va Shinjon viloyatida musulmon aholining ko'pligi edi[7;132].

4.Xulosalar:

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida mazkur kichik hajmli tadqiqotimizdan qo'yidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin. Rossiya imperiyasi bojxona sohasidagi islohotlari va yuridik qonunchiligi bilan Turkistonni o'z iqtisodiy olamiga kiritishga majbur qildi. Turkiston xalqlarining qushni davlatlar bilan aloqalarini nazorat ostiga olishga yoki ularni batamom uzib tashlashga harakat qildi. Tarixiy manbalarda mazkur aloqadorlik imperiya manfaatlariga mos keladigan bo'lsa ularni o'zlashtirishga harakat qilinganligini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Imperiya ma'muriyatining Turkistonning Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalaridan foydalanishga harakat qilinganligi ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Bu ma'lumotlar faqatgina Xitoy aloqalariga daxldor bo'lib, Rossiya imperiyasining Zarafshon okrugi (keyinchalik Samarqand viloyati), Sirdaryo, Kaspiyorti, Farg'ona bojxonalarini orqali olib brogan tashqi iqtisodiy siyosatini tahlil qiluvchi tadqiqotlarga ehtiyojni oshiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Материалы по Туркестану. Составил Генерального Штаба полковник Бельявский.СПб.1887. – С.26. (Materials on Turkestan. Compiled by the General Staff Colonel Belyavsky. St. Petersburg 1887. – P.26)
2. Sayfullayev S. Turkiston general gubernatorligining tashkil topishi va ma'muriy hududiy tuzulishi. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947.-B.38.
3. О'зМА, фонд И-2,опис-2,дело-253, лист-6. (UzNA, Fund I-2, description-2, case-253, sheet-6.)
4. О'зМА, фонд И-1,опис-12,дело-1730, лист-24 (UzNA, Fund I-1, description-12, file-1730, sheet-24).
5. О'зМА, фонд И-1,опис-12,дело-1730, лист-24 (UzNA, Fund I-1, description-12, case-1730, sheet-24).
6. О'зМА, фонд И-25,опис-1, дело-1305, лист-101 (UzNA, Fund I-25, description-1, case-1305, sheet-101).
7. Ходжаёрова С.Б. Исторический анализ отношений Туркестанского генерал-губернаторства с Китайским государством в середине XIX - начало XX веков.//academic research in modern science International scientific-online conference. – С.132 (Khodjayorova S.B. Historical analysis of relations of the turkestan general province with the chinese state in the middle of the nineteenth - beginning of the XX centuries.//academic research in modern science International scientific-online conference. – P.132).
8. Шишкина Н.В. Из истории таможенной службы в Туркестане (Shishkina N.V. From the history of the customs service in Turkestan)// <https://museum.customs.gov.ru/document/text/254466>
9. Курбанов Ч. Из истории формирования единой таможенной линии и организации охраны границ Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX в (Kurbanov Ch. From the history of the formation of a single customs line and the organization of the protection of the borders of the Turkestan Governor-General in the second half of the 19th century)// <https://cyberleninka.ru/article/n/iz-istorii-formirovaniya-edinoy-tamozhennoy-linii-i-organizatsii-ohrany-granits-turkestanskogo-general-gubernatorstva-vo-vtoroy>
10. НА РУз. Фонд И-3, опис-1, дело-63, л-1-2(NAUz, Fund I-3, description-1, case-63, sheet-1-2).

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000